

**Abdulla Avloniyning tarixiy haqiqatni qaror toptirishda qo‘shgan  
hissasi hamda faoliyati**

*Ohangaron tumani maktab va maktabgacha*

*ta’lim tasarrufidagi 35-umumiy*

*o‘rta ta’lim maktabi ona tili*

*va adabiyoti fani o‘qituvchisi*

**Saydaliyeva Shaxlo Abdimuminovna**

+998 93 110 82 14

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotinig zabardast namoyondalaridan biri, taniqli pedagog va alloma, o‘zbek jadidchilik harakatinig yetuk vakili Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi, asarlarining mohiyati, yozuvchining pedagogik qarashlari va u ilgari surgan fikrlarning yosh avlod va jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi*

**Kalit so‘zlar:** *to‘quvchilik, Salomatxon, “Данўси намума”, “Hijron” taxallusi, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Shuhrat” gazetasini*

1978-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida kosib oilasida Abdulla Avloniy dunyoga keldi. Otasi Miravlon ota to‘quvchilik bilan shug‘ullangan. U hozirgi Navoiy teatri maydoni, Yarmarka bozorida boz va chit bilan savdo qilgan. Onasi Fotima ona bo‘lgan. Abdulla ilk savodini O‘qchi mahallasidagi Akramxon domlaning eski maktabida chiqargan. Keyinchalik, mahallasidagi madrasasida davom etgan. Ilmga chanqoq Abdullaning ilm olishi, o‘qishi uchun tirikchilikning o‘g‘irlashuvi halaqit beradi. “1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qib, boshqa fasllarda mardikor ishladim”- deb yozadi Avloniy. U butunlay ishga ko‘milib ketadi va o‘zi aytganidek “binokor”lik, “g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkalik, duradgorlik ishlari” bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ilm olishgga bo‘lgan qiziqishi bilan birga adabiyotga havasi ham shu yillari uyg‘ondi. 1990-yilda u uchun ham omadli ham o‘g‘ir yil bo‘ldi. Chunki

shu yili bir savdogar oila farzandi Salomatxon degan qizga uylanadi yana xuddi shu yili otasi Miravlon ota vafot etdi.

1904-yilda Abdulla Mirobodda usuli jadid maktabini ochadi. 1907-yilda oz hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqarishga muvaffaq boldi. Gazetaning asl maqsadi a’yon bo’lgach do’stidan ko’ra dushmani ko’paya boshlaydi. Axir bekorga mehrobingdan chiqqan chayonlarning bor deyishmaydi. Shunday qilib, gazeta 10-soni chiqarilgandan so’ng yopildi. Oxirgi 10-sonida “Данўси намима” (chaqmacha qarlik) sarlavhasi bilan idoraning bir xabari bosilgan. Unda shunday gaplar bor edi: “Eshitilmish xabarlarga qarag’omda o’z musulmonlarimizdan ba’zi “данўс” nammomlar paydo bo’lib, gazetamizdan “началь-ство” g’a “данўс” qilmak fikrida yelka qilg’on emashlar... gazetamizning maslaki milliy, betaraf siyosiy o’lub, “умеренно-прогрессивная политическая” gazetadir.

Yozg’on maqolalarimiz ham ushbu maslakimiz o’lg’on e’tiqod va haqqoniyat doirasida o’lub, nozir va denzurlar tarafidan xalqik uzra tarjima qilinib, tegishli mahkamalarda korilub turilibdur. Shul sababli “начальство”ning sizning “данўс”larga hech bir ehtiyoji yo’qdur”. Xullas shunday qilib gazeta yopildi.

Umuman, Avloniy 1904-1905-yillarda ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizgin shug’ullandi. O’z she’rlarini “Hijron” taxallusi bilan e’lon qildi. Maqolalarini esa Mulla Abdulla, Avloniy, Abdulla Avloniy nomlari bilan bostirdi. So’ngroq uning ko’p ishlatgan laqablaridan biri indamas bo’lgan edi. 1909-yilda “Jamiyati xayriya” ochdi va mahallaiy xalq bolalarining o’qib bilim olishi uchun pul yig’ib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi Vaqt gazetasida yozib chiqadi. 1913-yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlar, taraqqiyparvarlarning tashabbusi bilan “Turon” jamiyati maydonga keldi. Uning muassislaridan biri Avloniy edi. Jamiyat qoshida teatr truppassi tuzildi. Avloniy truppassi sahnalashtirilgan birinchi asar Behbudiyning “Padarkush”I boldi. 1914-yil 27-fevral Toshkentning 2000 kishilik muhtasham “kolizey” teatri tomoshabinlar bilan to’la. Galereya va yolaklarda ham odam qaynaydi... sahna ochiladi. O’rta bo’y, miqti, yevropacha kiyingan kishi paydo bo’ladi. –

“Muhtaram jamoat!- gap boshlaydi u. – Bugun Toshkand xalqi hayotida tarixiy kundir...” notiq teatr va uning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida so‘zlaydi. Tomoshabinlar uning har bir gapini berilib tinglaydilar.

Abdulla Avloniyning millat tarbiyasi bobida qayg‘urib, Sa‘diy Sheroziyning axloqiy risolalariga havaslanib “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli didaktik ruhda yozgan asari o‘z vaqtida sevib o‘qildi va hamon o‘qilmoqda. Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikri aynan yuqorida nomi aytilgan kitobidan olingan. Bu fikr asrlardan asrlarga o‘tib, abadiyot yo‘liga chiqqan hikmatlar sirasiga kiradi. Avloniy milliy til va milliy adabiyotga urg‘u berib yozadi: “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur... O‘zi bilgan-bilmagan turli tillarning so‘zlarini “aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadir”. Haq gap ham shu. “Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bilan hosil bo‘lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo‘lsa ham, o‘zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas. Fikri salomat kishilarning qalbi halim, tab‘i karim bo‘ladi”. Tarbiya bobida bunday hayotiy hikmatlar, Payg‘ambari miz (s.a.v.) hadisleri, dunyo allomalari ning aforizmlari bilan to‘yintirilgan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari hamon o‘z qadr-qiyamatini saqlab keladi.

. “Ilm bir nuri ziyo” – uning jilosi ketmaydi. Ilm nuri odamni aziz qiladi, ilmli insonga xorlik va zorlik yaqin yo‘lamaydi. Shoir xitoban yozadi:

“Ayo ey sohibi urfon!

Vatan bog‘inda faryod et!

Otib tashla aroding eski odatlarni, barbod et!

Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig‘ san,

Qarong‘uda qolan millatni nuri ilma irshod et!”

Ilm nuri, ilm manfaati, ilm yo‘li, ilm saodati – bular shoir nazmida juda ko‘p takrorlanadi. Abdulla Avloniy ilmni ulug‘lab yana yozadi: “Ilm inson uchun g‘oyayi oliy va muqaddas bir fazilatdur.

Avloniyning mustaqilligimiz uchun qo‘shgan hissasi ulkan ahamiyatga egadir. Tahlikali hayotda yashashiga qaramay, o‘z xalqini dunyoqarashining boyishi uchun o‘z tinchidan, halovatidan kechib, tunni tun demay, kunni kun demay harakat qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov., Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti – Toshkent: Ma’naviyat, 2004
2. “Jadid” gazetasi – 2024-yil 12-iyul № 29(29) [www.jadid-media.uz](http://www.jadid-media.uz)